

Andijon

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

8-iyun 2023-yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

**«ZAMONAVIY MASHINASOZLIK VA MUHANDISLIK TA‘LIMI
MUAMMOLARI»
mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**«ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОГО МАШИНОСТРОЕНИЯ И
ИНЖЕНЕРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ »
Международная научно-практическая конференция**

**AN INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
ON THE TOPIC « PROBLEMS OF MODERN ENGINEERING AND
ENGINEERING EDUCATION »**

8-iyun 2023 - yil, Andijon

MATERIALLAR TO‘PLAMI

TAHRIR HAY'ATI:

Hay'at raisi:

U.M. Turdialiev-t.f.d., katta ilmiy xodim. Andijon mashinasozlik instituti rektori

Mas'ul muharrir:

U.A.Madrahimov-i.f.d., professor. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

Sho'ba rahbari va a'zolar

X.U.Akbarov	“MT” kafedrası mudiri, t.f.n.,dots
Sh.X.Yo‘ldashev	“TMJ” kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD)
D.Ergashev	“MYaMT” kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD)

Texnik muharrirlar

N.U.Qodirov	“TMJ” kafedrası doktoranti
E.Shamsiddinov	“MT” kafedrası doktoranti
S.Mo‘minov	“TMJ” kafedrası assistenti

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Respublikada amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlarning barchasi mamlakat makroiqtisodiy barqarorligining oshishi bilan birga, aholi turmush farovonligiga ijobiy ta'sir etmoqda va ularning davom ettirilishini davrning o'zi taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. A.Ortikov. Sanoat iqtisodi. Darslik. T.: TDIU, 2009. 236 b.
3. D. G Mamadjonov "O'zbekistonda sanoat tarmog'i rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini baholash". "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil <https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/>
4. E.X. Maxmudov, A. Ortikov, F. Karimov. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini. / Hamkor. 2010 yil 7 fevral.
5. www.stat.uz. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda Andijon viloyati Statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

YONG'OQ MAG'IZINI SARALASH JARAYONLARI TAHLILI

Mirzayev Otabek Abdiraximovich, Xurramova Zilola G'ayratovna

Andijon mashinasozlik instituti

Dunyoda yong'oq mevasini yetishtirish va jahon bozoriga sifatli mahsulot maydonlarida yong'oqzorlar mavjud.


Yong'oq daraxti foydali meva hisoblanadi. Yog'ochi mebelsozlik sanoati uchun qimmatbaho xomashyo bo'lsa, bargidan tortib mevasigacha shifobaxsh

xususiyatga ega. Xalq tabobatida yong‘oqning barglari, gullari, meva g‘o‘rasi, po‘stlog‘i, po‘chog‘i, mag‘zining po‘stlog‘i va moyidan keng foydalaniladi. Abu Ali ibn Sino yong‘oq haqida shunday degan: “Yaprog‘i va qobig‘i burishtiruvchi bo‘lib, qon oqishiga qarshi foydasi bor. Yong‘oqning yog‘i yaraga, sarmastga va ko‘z atrofidagi yaralarga malham bo‘ladi”. Ulug‘ tabib yong‘oq bargi shirasini iliq holda quloq ichi yiringlaganda tomizgan, po‘stidan tayyorlangan qaynatmani esa bachadondan qon ketishini to‘xtatishda qo‘llagan [1].

Yong‘oq – yong‘oqdoshlar oilasiga mansub mevali daraxt hisoblanadi [2]. Bu meva butun dunyoda keng tarqalgan. Yong‘oq mevasi yetishtirish dunyoda qariyb 1 500 000 tonnadan oshadi. Xitoy Respublikasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Eron Islom Respublikasi mos ravishda yong‘oqning asosiy ishlab chiqaruvchilari hisoblanadi. So‘nggi yillarda yuqorida qayd etilgan mamlakatlarda yong‘oq yetishtirish jadal sur‘atlar bilan o‘sadi [3]. Yong‘oq mevasi to‘rtta asosiy qismdan iborat: mag‘iz, po‘stloq, qobiq va yashil qobiq. Yeyish mumkin bo‘lgan mag‘izi tufayli u keng tarqalgan. Yong‘oq yuqori kaloriya darajasiga va boy ozuqaviy tarkibga ega [4]. Agar u yetarli miqdorda iste‘mol qilinsa, kundalik ratsionga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin. Tarkibida ko‘p to‘yinmagan yog‘li kislotalar kabi o‘ziga xos birikmalar tufayli u fiziologiya va tibbiy biokimyoda funksional ahamiyatga ega. Yong‘oq mevasi yog‘ga boy va uning yog‘ini alohida iste‘mol qilish yoki boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan aralashtirish, yangi yoki qovurilgan holda iste‘mol qilish mumkin. Yong‘oq yog‘ining asosiy tarkibiy qismlari triglitseridlar bo‘lib, ularda mono to‘yinmagan (birinchi navbatda oleyk kislotasi) va ko‘p to‘yinmagan yog‘li kislotalar (linoleik va a-linolenik kislotalar) ko‘p miqdorda mavjud. Fenollar, fitosterollar va tokoferollar kabi boshqa biologik faol kichik komponentlar mavjud [5]. Yong‘oq va yong‘oq yog‘ini iste‘mol qilish, avvallari saratonning ayrim turlaridan himoya qiluvchi vosita sifatida ishlatib kelingan. Chunki yong‘oq tarkibida yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradigan tabiiy antioksidantlarning yuqori miqdori mavjud.

Mag'izni saralash jarayonini sifatli tarzda ta'minlash va samaradorligini oshirish uchun yong'oqni fizik, mexanik, kimyoviy xususiyatlarini aniqlash, mag'izni saralash mashinasi bilan ishqalanishi va saralash mashinasidagi harakatini hisobga olish hamda yong'oq mag'izini saralash mashinalari parametrlarini asoslash bilan bajariladi.

Brazilyalik tadqiqotchi Fernanda Robert de Mello va boshqalar brazilya yong'og'ini saralash bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan.



1-rasm. Brazilya yong'og'ini o'lcham bo'yicha saralash qurilmasi.

1-rasda keltirilgan qurilmada 40x25, 35x23 va 20x19,5 mm [uzunlik x kenglik] o'lchamlar bo'yicha va tebranish xususiyatiga ega bo'lgan uchta oval bo'lakli tovoqlar yordamida o'lchamlarni saralash orqali yong'oqlar uchta o'lchamdagi guruhlariga ajratildi: mos ravishda katta, o'rta va kichik o'lchamlar. Shuningdek, 20x19,5 mm. dan kichik o'lchamdagi yong'oq yoki uning qismlari eng pastga joylashtirilgan tovoqqa tushadi. Ushbu saralash sozlamalaridan past yoki yuqori aniqlangan har qanday yong'oq o'lchovi nostandart deb topildi va rad etilgan.

Qurilmaning ishlashi yong'oqlar eng yuqorida turgan saralash tovog'iga to'kiladi. Tovoqlar o'rnatilgan vibrator mexanizmi harakatga kelish natijasida yuqorida turgan saralash tovog'i teshiklaridan o'lchami kichik bo'lgan yong'oqlar pastki tovoqlarga tushadi va shu asosida o'lchami bo'yicha saralanadi [5]. Bu

qurilmaning kamchiligi saralangan yong'oqlarni yig'ishtirib olish qiyinligida, shuningdek, saralash jarayoni uzoq vaqt olishi, bu esa energiya sarfini ortishiga olib kelishidadir.

Adabiyotlar

1. Barakayev N., Mirzayev O. Mahalliy yong'oqlarning mexanik xossalarini ilmiy asoslash. // Buxoro muhandislik-texnologiya instituti «Fan va texnologiyalar taraqqiyoti» ilmiy-texnikaviy jurnal. – Buxoro, 2019. № 5. – B. 37-42.
2. Mirzayev O.A. Yong'oq chaqish mashinasi konstruksiyasini takomillashtirish va parametrlarini asoslash: Dissertatsiya –Andijon, 2020.- 120 b.
3. Hasanov B.A., Safarov A.A., Boyjigitov F.M. Yong'oq (Juglans L.) turkumiga mansub daraxt turlarining taksonomiyasi va ularnikasalliklardan himoya qilish muammolari. // Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini jurnali. – Toshkent, 2017. – № 2 (2). – B. 21-23.
4. Barakayev N, Mirzayev O, Toirov B and Alimov A. Justification of the parameters of parts of a walnut cracking machine. // ICMSIT-II 2021 Journal of Physics: Conference Series 1889 (2021) 022061 IOP Publishing doi:10.1088/1742-6596/1889/2/022061.
5. Fernanda Robert De Mello, Vildes Maria Scussel Characteristics of in-shell Brazil nuts and their relationship to aflatoxin contamination: criteria for sorting. 2007 Oct 31;55(22):9305-10. doi: 10.1021/jf071392x

298	H.S.Turdimuratov. Talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini pivojlantirish jarayonida mustaqil ta'lim texnologiyasi	996
299	А.Д.Джураев, К.К.Юлдашев, Ш.Л.Далиев, Т.И.Низомов. Пахтани майда ифлосликлардан тозаловчи қозикли барабанлар назарий тадқиқотлари натижалари таҳлили.	999
300	А.Б.Ахмедов. Замонавий машинасозлик ва муҳандислик таълим йўналиши бўйича тахсил олаётган талабаларнинг тадқиқотчилик компетенциясини шакллантириш	1002
301	Базаров Б.И., Хусанжонов А.С. Влияние качества моторного масла на характеристики двигателя	1006
302	Г.С.Мирзаева. Инновационные методы обучения студентов в технических вузах.	1009
303	Х.Ғуломов Худоберди, М.Б.Юсупова. Зарарсизлик таҳлилининг шарҳи	1013
304	М.А.Қаҳҳорова, И.И.Жалилов. Изучение влияния прикладной и научной литературы на образование	1016
305	М. Y. Kosimova, Sh.R.Eshboeva. Actual problems of modern architecture	1018
306	Ж.Холмирзаев. Физика таълимини табақалаштиришнинг устивор жиҳатлари	1021
307	М.М.Xodjimuxamedova, B.N.Fayzimatov. Texnika oliygohlarida “kredit ta’limi” tizimi sharoitida talabalarining bilim salohiyatini rivojlantirish.	1025
308	E.Yu.Sharibayev, M.R.Toxirjonova. Texnologik jarayonlarni boshqarishda mobil aloqa uskunalari va ilovalari	1028
309	Б.М.Мадаминов, А.А.Адхамов. Анализ детали для проектирование прогрессивных штампов с помощью программной обеспечение autoform	1030
310	E.Yu.Sharibayev, M.R.Toxirjonova. Sanoatda scada tizimlaridan foydalanish	1033
311	И.З.Насиров. Тестлаш орқали ўқитиш” усулида дарсларни олиб бориш	1035
312	Т.А.Джалилова, М.Д.Халилов. Некоторые многозначные функции комплексного аргумента	1039
313	Т.А.Джалилова, М.Собиров. Интеграл Фурье в комплексной форме	1045

314	Ж.Ибрагимов. Набегание ударной волны на двухслойное цилиндрическое кольцо в грунте	1048
315	М.А.Каримова, I.J.Jaloldinov. Avtomobil transport tizimini modellashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.	1050
316	F.M.Sultonova, M.K.Qosimova. Zamonaviy muhandisni tayyorlashda fizika fanini o'qitish istiqbollari	1059
317	Махрамова Нигора Юлдашевна, олий таълим тизимида таълим хизматлари маркетинги	1061
318	R.Sh.Sultonov, A.Jo'rayev. Plug lemex dolotalarini labaratoriya sharoitida tarkib va mikrostukturalarini o'rganish.	1064
319	Д.В.Васильков, Т.Б.Кочина, Б.Н.Файзиматов. Дуплексные технологии упрочнения ответственных деталей аксиально-поршневых насосов	1069
320	М.Е.Жо'раxonov. Sanoat tarmog'ini rivojlantirish istiqbollari	1072
321	О.А.Mirzayev, Z.G'.Xurramova. Yong'oq mag'izini saralash jarayonlari tahlili	1078